

YOSHLARNING IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI IQTISODIY QARASHLARINING O'RNI

Suyarov Ashirbek Mustafayevich

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti
"Maktab menejmenti" kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan yozilgan ta'limotlar, iqtisodiy fikrlar, tushunchalar keltirilgan. Bugungi kunda yoshlarimizning iqtisodiy bilimlarini oshirishda ular tomonidan yaratilgan ta'limotlarning ahamiyati haqida.*

Kalit so'zlar: *Iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy ta'limot, iqtisodiy fikr, "Minerologiya" asari, natural xo'jalik, ehtiyoj, ish haqi, mehatga haq to'lash, iqtisodiy g'oyalar,*

Аннотация: *В данной статье собраны учения, экономические идеи и концепции, написанные нашими великими мыслителями. Сегодня речь идет о значении созданных ими учений в совершенствовании экономических знаний нашей молодежи.*

Ключевые слова: *Экономическая мысль, экономическая теория, экономическая мысль, книга «Минерология», натуральное хозяйство, потребность, заработная плата, оплата труда, экономические идеи.*

Annotation: *This article contains teachings, economic ideas and concepts written by our great thinkers. Today we are talking about the importance of the teachings they created in improving the economic knowledge of our youth.*

Key words: *Economic thought, economic theory, economic thought, book "Minerology", natural economy, need, wage, payment in work, economic ideas.*

O'zbek xalqi qadimdan bolajon xalq hisoblanib kelingan. Xar bir oilada farzandlar tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratishgan. Oiladagi tarbiyada o'g'itlar, asl insoniy fazilatlar, yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda halollik, rostgo'ylik, o'zaro hurmat, mehnat qilish, hunar egallash, mehnatni qadrlash, mas'uliyatli bo'lish ota-onalar tomonidan yosh avlod ongiga singdiriladi.

O'zbekiston aholisi doimiy o'sishda. "2023 yilning 1 oktyabr holatiga respublika doimiy aholisi soni 36 599 764 kishini tashkil etgan. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, respublikaning doimiy aholisi soni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,2 foizga oshgan. Mamlakat aholisi 2023 yil boshidan buyon 574,8 ming kishiga ko'paygan. O'zbekiston aholisi 2023 yilning har bir oyida o'rtacha 63,9 ming kishiga oshgan. 2023 yilning har bir kunida doimiy aholi soni o'rtacha 2,1 ming kishiga ko'paymoqda." [1] Raqamlardan ham ko'rinib turibdiki Mamlakatimizda yoshlar soni ancha sezilarli darajada ko'payib bormoqda.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'limda 6,3 million o'quvchi, oliy ta'limda esa 1 milliondan ortiq talabalar ta'lim olishmoqda. Xozirgi global dunyoda yoshlarimiz

ongida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda bizning buyuk mutafakkirlarimizning iqtisodiy fikrlari, ta'limotlari muhim o'rin tutadi.

IX-XI asrlarda Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Forobiy va boshqa ko'plab mutafakkirlar yashab, ijod qilishgan. Ularning asarlarida iqtisodiy g'oyalar ham o'z aksini topgan. Sharq renessansi davridagi olimlar shu davrdagi tijorat, mulkdorlik hunari sirlarini bayon etganlar. Ularning asarlaridagi umumbashariy iqtisodiy taffakkur bugungi kunda ham dolzarbliligi bilan muhim o'rin tutadi. Ibn Sino (980-1037)ning fikricha: " Hayvon tabiat ne'matlariga qanoat qiladi, odamlarga esa tabiat ne'matlari kamlik qiladi, u ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvon tabiat ne'matlarini o'zlashtirib oladi, odam esa o'z mehnati bilan o'ziga ovqat, kiyim, joy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishi kerak" [2] degan muhim iqtisodiy qarashlarini ma'lum qilgan. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) 150 dan ortiq asar yaratgan bo'lib, ularda mehnat boylikning asosi ekanligi to'g'risidagi g'oya ilgari surilgan. Uning ko'pgina fikr va qarashlari bugungi kun uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan. Beruniyning kishilik ehtiyojlarining paydo bo'lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va hunarga munosabatlar uyg'unlashib ketadi. Abu Rayhon Beruniy ham o'z zamonasining ilg'or fikrlovchi olimi hisoblangan.

Uning fikriga ko'ra, kishilar o'z zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun uyushgan holda yashash va ishlashga majburdirlar. Ehtiyojlar turli-tuman va ko'p bo'lganligi uchun insonlar birlashgan holda turarjoy va shaharlar yaratishga intiladilar, deb hisoblaydi. Shuningdek, u davlatning paydo bo'lishini ham ehtiyoj tufayli deb bilgan. Eng muhim g'oya shuki, barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmatini uning avlod-ajdodlarining kim bo'lganligi emas, balki uning mehnati, aqliy va jismoniy mahorati bilan belgilanadi. "Har bir davrning urf-odatlarini o'ziga xos bo'ladi va inson ahli ularga rioya qilmog'i darkordir, aks holda nizom va bir xillik yo'qolsa, tartib ham yo'q bo'ladi», - deb uqtiradi buyuk donishmand.[3] Beruniy og'ir jismoniy mehnat qiluvchilar, ya'ni konda ishlovchilar, yer ostida gavhar qidiruvchilar, dehqonlar to'g'risida, ularga berilishi kerak bo'lgan imtiyozlar va ish haqi haqida «Minerologiya» asarida keng mulohaza yuritadi. Ayniqsa, ochiq va yer ostidagi kon ishlariga alohida e'tibor beriladi, yerosti konlarini mustahkamlash (falokatning oldini olish uchun), yerosti suvlarini chiqarib tashlash, olingan rudani yuqoriga olib chiqish uchun maxsus moslamalardan foydalanish tavsiya etiladi. Kon atrofida konchilar qishlog'ini barpo etish zarurligi ko'rsatiladi. Yerosti boyliklarini qazib olish ishlari katta jismoniy mehnat, ixtirochilik, aqliy mehnat va bilim sarflashni talab etadi. Bugungi kunda Beruniy bobomiz aytgan konchilik to'g'risidagi fikrlari xayotda o'z isbotini topmoqda. O'rta asrda ilg'or iqtisodiy fikrlarni ilgari surgan yana bir buyuk mutafakkir bobolarimizdan biri, Aristotelning izdoshi, uning asarlarini tahlil qilgan, "ikkinchi muallim" Abu Nasr Forobiy (870-950) hisoblanadi. U ko'p qirrali olim bo'lib, o'z bilimini oshirish yo'lida tinmay mehnat qilgan, qaysi yurtda mashhur olim borligini eshitishi bilan suhbatlashib, undan saboq olish uchun

yo'lga chiqqan. Forobiy bir asarini bir marta o'qib tushunolmasa, uni qayta-qayta o'qirdi. Forobiy ham o'zining ustida tinimsiz ishlagan olimlarimizdan biri hisoblanadi. Forobiy ko'plab chet el olimlarining asarlarini xam qunt bilan o'rgangan. Aristotelning «Jon haqida» asarining Forobiy o'qigan nusxasi topilgan bo'lib, kitob chetiga uning tomonidan «Men bu kitobni yuz marta o'qidim», boshqa bir kitobda esa «Bu kitobni qirq marta o'qidim, lekin yana o'qishim kerak», deb yozilgan.[4] Forobiy Aristotel asarlarini o'qib-o'rganish bilan birga ularga sharhlar ham yozgan. Buyuk alloma Ibn Sino Aristotelning «Metafizika» asarini Forobiy yozgan sharhlar yordami bilangina to'liq tushunganligi haqida yozgan. Forobiyning iqtisodiy qarashlari fanda bugungi kunda xam o'z kuchini yo'qotmagan. Uning “moddiy ehtiyojlar” to'g'risidagi yaratgan ta'limoti, uning fikricha odamlarning ehtiyoji jamiyat shakllanishining asosiy sababidir. “Tabiatan har bir odam shunday yaralganki, u yashashi va kamol topishi uchun ko'p narsalarga ehtiyoj sezadi. Ularni u bir o'zi topa olmaydi va ularga erishish uchun kishilar jamoasiga muhtoj bo'ladiki, uning har biri u ehtiyoj sezayotgan narsalardan biron-birini beradi, unda har bir odam boshqalarga nisbatan xuddi shunday holatda bo'ladi”. Jamiyat shakllanishi uchun moddiy ehtiyojlar to'g'risida bunday tushuncha o'sha davrdagi ilg'or fikrlardan hisoblanadi. Shu bilan birga moddiy boylik yaratishdagi mehnat va mehnat qurollarining ahamiyatini, har xil hunar turlarini uqtirib o'tgach, qullikka keskin qarshi chiqdi. Forobiy Platonga o'xshab ideal tuzum to'g'risida fikr yuritdi. U kelajak haqida o'ylab, baxtga erishishning zarur va birlamchi shartini tashkil etuvchi o'zaro yordam va do'stlik tufayli bo'ladigan shaharni ideal shahar, deb hisoblagan; yer yuzida barcha xalqlarning o'zaro yordami asosida bir butun yagona jamiyat qurish mumkinligi to'g'risida, mahsulotlarni adolatli taqsimlash haqida fikrlar bildirdi. Ammo Forobiy mazkur o'zaro yordamning iqtisodiy asosi - mehnat mahsulotlarini ayirboshlashning zarurligini ko'rsatib bera olmadi. Shu narsani qayd qilib o'tish kerakki, Forobiy iqtisodiy masalalarni ikkinchi o'ringa surib qo'ydi [5].

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'limga katta e'tibor berilib kelinmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida va oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlar o'qitilmoqda. Yoshlarimizni hozirgi zamon ruhida tarbiyalab o'qitishda, bizning buyuk mutafakkirlarimizning iqtisodiy qarashlari, ularning iqtisodiy ta'limotlari, iqtisodiy fikrlarining o'rni beqiyosdir. Xususan IX-X-asrdagi iqtisodiy g'oyalar rivojida muhim hissa qo'shgan qomusiy allomalar Forobiy, Ibn Sino, Beruniy hamda Yusuf Xos Hojibning fikr va qarashlari muhim hisoblanadi. Umuman olganda o'sha davrdagi iqtisodiy g'oyalarning xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: iqtisodiy qarashlar fikrlar va g'oyalar asosan faylasuflar, diniy arboblardan bayon etilgan, nazariy, tadqiqotlar esa cheklangan tor, sodda yondashuvlar asosida umumlashtirilgan, takror ishlab chiqarish jarayonida natural xo'jalik, munosabatlarining ustunligi egallagan, ekstensiv takror ishlab chiqarishning ustuvorligi davom etgan, qo'shimcha mahsulot yaratishning vosita usul va shakllarini donishmandlarning iqtisodiy g'oyalarida

esa, zamonaviy dunyoqarashning umumbashariy mezonlari qayd etilgan. Shuningdek, mulkdorlikning yuksak ma'naviyat bilan uyg'unlashishi zarurligi bayon etilgan. Hayotga, mehnatga, mulkka hamda yerga bo'lgan munosabatning umumbashariy mezonlarga asoslanishiga undaydi. Har bir shaxs va oila farovonligi jamiyat va davlat kuchli va qudratli bo'lishiga zamin yaratishiga asoslanadi. Eng asosiy vazifa sifatida sharq mutafakkirlari iqtisodiy ta'limotlari asosida o'quvchilar ongida iqtisodiy bilim, iqtisodiy ta'limotlar, iqtisodiy tushunchalar shakllanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Pirovard natijada o'quvchi-yoshlarimizning iqtisodiy bilimlarini oshirishda bizning buyuk mutafakkirlarimiz yaratgan iqtisodiy ta'limotlar muhim o'rin turtmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://kun.uz/38887083> kun.uz sayti
2. A. Razzoqov, Sh.Tashmatov, N.O'rmonov, P.Xoshimov, F.Egamberdiyev "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" o'quv qo'llanma T.: 2005 y. 436 b.
3. A. Razzoqov, Sh. Tashmatov, N.O'rmonov "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi". Darslik.T.: 2007 y. 320 b.
4. Sh.Tashmatov, X.Asatullayev, Z.Allaberganov "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" Darslik.T.: 2019 y. 352 b.
5. Мусурмонов Р. взгляды восточных мыслителей на воспитание ребёнка и семейные отношения в узбекских семьях. Вестник науки и образования 2020. № 4 (82). Часть 1. Российский импакт-фактор: 3,58 научно-методический журнал.
6. Суяров, А. М. (2023). Ўқувчиларнинг қизиқишлари асосида ўқув жараёнини ташкил этиш. *pedagogs jurnali*, 31(1), 180-184.
7. Мусурмонов, Р., Хуррамов, К. М., & Суяров, А. М. (2022). Ўқувчиларнинг дарсга бўлган муносабатини кластер асосида ўрганиш. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue 2), 338-342.
8. Usarov, J. E., Khimmataliev, D. O., Makhmudova, D. M., Abdusalomovna, H. S., & Nizamiddinovich, E. A. (2023). Pedagogical Foundations of the Student's Individual Training Trajectory. *Telematique*, 22(01), 1259-1264.
9. Суяров, А. М., Шамситдинова, Б. М. Қ., Абдурахманова, Н. Р. Қ., & Рахманов, Х. З. Ў. (2022). Таълим муҳитида педагогик фаолиятни такомиллаштириш йўналишлари. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 846-851.
10. Мусурмонов, Р., & Суяров, А. М. ёшларнинг шарқона имиджи ва муомала одобини шакллантириш хусусида. муғаллим ҳем узликсиз билимлендириу, 200.